

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 1, 2026 vol. 3

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT

RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164

VOLUME 3, ISSUE 1

MARCH, 2026



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 3, ISSUE 1 MARCH, 2026

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

The “**Journal of Transport**” established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo‘lchilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at jot@tstu.uz.

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

Development of entrepreneurial activity in the construction industry

A.J. Abdullaev¹^a

¹ Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the role of the construction industry in the economic system and its specific characteristics. The importance of the construction sector in the socio-economic development of the country, the processes of comprehensive regional development, construction of modern housing and social infrastructure facilities are examined. In addition, the volume of construction work carried out in the Republic of Uzbekistan is analyzed based on statistical data by regions, and the distribution of construction activities by types of economic activity is considered. The study also examines the main directions for the development of the construction sector within the framework of the “Uzbekistan – 2030” Strategy, including the acceleration of urbanization processes, effective organization of investment activities, and the introduction of modern technologies in the construction industry. The results of the research show that the construction sector plays an important role as one of the key drivers of economic growth and sustainable development.

Keywords: construction industry, construction economics, entrepreneurship activity, urbanization, infrastructure development, investment processes, housing construction, economic development, regional development, Uzbekistan-2030 strategy

Qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatini shakllanishi

Abdullayev A.J.¹^a

¹Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Tashkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sanoatining iqtisodiy tizimdagi o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Qurilish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, hududlarni kompleks rivojlantirish, zamonaviy uy-joylar va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududlar kesimida statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinib, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining ulushi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qurilish sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari qurilish sanoatining iqtisodiyotda muhim drayver tarmoq sifatida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: qurilish sanoati, qurilish iqtisodiyoti, tadbirkorlik faoliyati, urbanizatsiya, infratuzilma, investitsiya jarayonlari, uy-joy qurilishi, iqtisodiy rivojlanish, qurilish ishlari hajmi, hududiy rivojlanish, qurilish bozori, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

1. Kirish

Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda aholini uy-joy bilan ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi bir qator iqtisodiy, institutsional va tashkiliy omillar bilan bog‘liq.

Avvalo, qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida davlat monopoliyasining qisqarishi, xususi

sektor ulushining ortishi va raqobat muhitining shakllanishi natijasida qurilish sohasida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyati kengayib bordi. Xususi qurilish kompaniyalari, pudrat tashkilotlari va kichik biznes subyektlari qurilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Bu esa sohada samaradorlikni oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. [1]

Qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida investitsiya muhitining roli ham katta ahamiyatga ega. Qurilish sohasi kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoq hisoblanadi, shuning uchun unda investitsiyalar hajmi va manbalari muhim omil hisoblanadi. Davlat investitsiya dasturlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususi sheriklik mexanizmlarining

^a <https://orcid.org/0000-0001-7069-2442>



rivojlanishi qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Investitsion muhitning barqarorligi esa yangi qurilish loyihalarining paydo bo'lishiga va tadbirkorlik tashabbuslarining ortishiga zamin yaratadi. [2]

Bundan tashqari, qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida huquqiy-me'yoriy baza ham muhim rol o'ynaydi. Qurilish faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, standartlar va texnik me'yorlar tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini aniq tartibga soladi. Litsenziyalash tizimi, qurilish me'yorlari va standartlari, shaharsozlik hujjatlari qurilish jarayonining sifatli va xavfsiz amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va kredit resurslariga kirish imkoniyatlarining kengaytirilishi ham sohada tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyada qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida ko'rib, uning rivojlanishi orqali urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda aholini sifatli uy-joy bilan ta'minlash kabi vazifalar ilgari surilgan.[3]

Strategiyada qurilish sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish hisoblanadi. Ushbu maqsad doirasida mamlakatda urbanizatsiya darajasini oshirish, shaharlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda yangi turar-joy massivlarini barpo etish rejalashtirilgan. Xususan, yirik shaharlar iqtisodiy markaz sifatida rivojlantirilib, ularning transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasi takomillashtirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa qurilish sanoatining iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Strategiyada aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda yangi turar-joy massivlarini qurish, zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar barpo etish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun arzon uy-joylar qurish vazifalari belgilangan. Jumladan, kelgusi yillarda mamlakat bo'yicha millionlab kvadrat metr yangi uy-joylar qurilishi, "Yangi O'zbekiston" turar-joy massivlari sonini ko'paytirish hamda kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy uy-joylar barpo etish rejalashtirilgan. [3]

Shuningdek, strategiyada qurilish infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bunda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yangilash, transport infratuzilmasini rivojlantirish, suv ta'minoti va energetika tizimlarini

takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, strategiyada qurilish sohasida sifat va xavfsizlik standartlarini takomillashtirish ham muhim yo'nalish sifatida belgilangan. Qurilish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos qurilish normalarini qo'llash hamda qurilish-montaj ishlarini nazorat qilish tizimini takomillashtirish rejalashtirilgan. Bu esa qurilish obyektlarining xavfsizligi, energiya samaradorligi va uzoq muddatli ekspluatatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Strategiyada belgilangan chora-tadbirlar qurilish sanoatining samaradorligini oshirish, zamonaviy shahar infratuzilmasini shakllantirish hamda aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada qurilish sohasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liq holda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim drayverlardan biriga aylanishi kutilmoqda. [3].

2. Tadqiqot metodologiyasi

Qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan ham bog'liq. Zamonaviy qurilish texnologiyalari, energiya tejankor materiallar, raqamli loyihalash tizimlari va boshqaruvning yangi usullaridan foydalanish qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsiyalarni joriy etish orqali qurilish jarayonining samaradorligi oshadi, qurilish muddati qisqaradi hamda loyiha qiymatini optimallashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shuningdek, qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi malakali kadrlar tayyorlash bilan ham bevosita bog'liqdir. Qurilish sohasida muhandislar, arxitektorlar, loyiha boshqaruvchilari va malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab yuqori. Ta'lim tizimi va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash qurilish korxonalarining samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi iqtisodiy islohotlar, investitsion muhit, huquqiy-me'yoriy asoslar, innovatsiyalar va kadrlar salohiyati kabi omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu omillarning uyg'un rivojlanishi qurilish sohasida raqobatbardosh tadbirkorlik muhitini shakllantirishga, tarmoqning barqaror rivojlanishiga va mamlakat iqtisodiyotining umumiy o'sishiga xizmat qiladi. [4]



2025-yilda hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi [5]

Hududlar	Yirik korxonalar (mlrd so'm)	Kichik korxonalar va mikrofirmalar (mlrd so'm)	Norasmiy sektor (mlrd so'm)	O'sish sur'ati		
				Yirik (%)	Kichik (%)	Norasmiy (%)
O'zbekiston Respublikasi	11 020,3	24 221,2	15 043,1	131,9	107,1	104,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	159,1	1 052,3	553,0	109,1	110,1	97,6
Andijon	300,8	1 426,9	504,6	266,1	108,1	78,7
Buxoro	433,3	1 324,6	1 457,1	97,1	107,8	102,1
Jizzax	187,8	717,8	513,9	228,2	104,7	100,3
Qashqadaryo	549,2	1 526,3	974,6	90,4	109,5	103,1
Navoiy	545,0	865,0	999,1	142,7	103,9	102,2
Namangan	182,9	1 164,0	1 129,6	154,7	105,4	106,9
Samarqand	293,8	1 802,8	634,5	65,9	115,1	117,0
Surxondaryo	219,0	1 336,4	919,6	154,5	108,2	85,7
Sirdaryo	173,4	648,6	162,9	134,6	107,2	78,6
Toshkent viloyati	1 403,1	2 39,4	2 763	186,6	109,4	109,4
Farg'ona	711,6	1 627,5	1 165,9	192,2	110,2	100,1
Xorazm	315,9	815,0	1 118,5	156,4	109,1	102,7
Toshkent shahri	4 085,6	7 517,6	2 146,8	176,4	103,3	127,7


Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qurilish ishlari hajmi korxonalar turlari kesimida quyidagicha taqsimlanganini ko'rishimiz mumkin, - yirik korxonalar tomonidan 11 020,3 mlrd so'm, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 24 221,2 mlrd so'm hamda norasmiy sektor tomonidan 15 043,1 mlrd so'm qurilish ishlari bajarilgan. Ushbu ko'rsatkichlar qurilish sanoatida kichik biznes va mikrofirmalarning ulushi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu esa qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining keng rivojlanayotganini, ayniqsa kichik biznes subyektlari ushbu tarmoqda muhim o'rin egallayotganini tasdiqlaydi. [5]

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o'sish sur'ati eng yuqori darajada Andijon viloyatida qayd etilgan bo'lib, u 266,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Jizzax viloyatida 228,2 foiz va Toshkent viloyatida 192,2 foiz o'sish sur'ati kuzatilgan. Bu hududlarda yirik investitsiya loyihalari hamda infratuzilma obyektlarining qurilishi faollashganini ko'rsatadi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati ham hududlarda sezilarli o'sishni namoyon etmoqda. Masalan, Samarqand viloyatida o'sish sur'ati 115,1 foizni, Qashqadaryo viloyatida 109,5 foizni hamda Toshkent viloyatida 109,4 foizni tashkil etgan. Bu esa qurilish

sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Norasmiy sektor ulushi ham ayrim hududlarda sezilarli darajada yuqori bo'lib, ayniqsa Samarqand viloyatida o'sish sur'ati 117 foizni, Toshkent shahrida esa 127,7 foizni tashkil etgan. Bu holat qurilish ishlarining bir qismi hali ham norasmiy sektorda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. [5]



1-rasm. Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi [5]



Qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasini baholashda korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2025 yillar davomida qurilish sohasida barcha turdagi korxonalar faoliyatida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan.

Tahlil qilinayotgan davrda qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, 2021 yilda ushbu toifadagi korxonalar tomonidan 11 686,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 24 221,2 mlrd so'mga yetgan. Bu esa kichik biznes subyektlarining qurilish sohasidagi faolligi ortib borayotganini hamda ularning tarmoqdagi ulushi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishida kichik biznes muhim o'rin egallayotganini tasdiqlaydi.

Yirik qurilish korxonalarini tomonidan bajarilgan ishlar hajmi ham tahlil qilinayotgan davrda sezilarli darajada oshgan. 2021 yilda 4 076,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 11 020,3 mlrd so'mga yetgan. Bu esa yirik investitsiya loyihalari, sanoat obyektlari va infratuzilma qurilishining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa 2025 yilda yirik korxonalar bo'yicha o'sish sur'ati 131,9 foizni tashkil etgani tarmoqda yirik qurilish tashkilotlari faolligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Norasmiy sektor ham qurilish sanoatida ma'lum darajada ulushga ega. 2021 yilda ushbu sektor tomonidan 3 796,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 15 043,1 mlrd so'mga yetgan. Norasmiy sektor o'sish sur'atlari ayrim yillarda o'zgaruvchan bo'lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy ekanligi kuzatiladi. Masalan, 2024 yilda norasmiy sektorning o'sish sur'ati 114,0 foizni tashkil etgan.

2021–2025 yillar davomida qurilish sohasida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan ishlar hajmining o'sishi tarmoqda tadbirkorlik faoliyati kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa kichik korxonalar va mikrofirmalarning faol ishtiroki qurilish sanoatida raqobat muhitining shakllanishiga, yangi loyihalarning amalga oshirilishiga hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan integratsiyaning kuchayishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, yirik qurilish tashkilotlarining faoliyati yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Norasmiy sektor esa ayrim kichik hajmdagi qurilish ishlarini amalga oshirish orqali tarmoq faoliyatini to'ldirib turadi. Bu holat qurilish sanoatida turli hajmdagi tadbirkorlik subyektlari faoliyati o'zaro uyg'un ravishda rivojlanayotganini ko'rsatadi. [5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadval tahlili qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyati shakllanishida kichik biznes va mikrofirmalarning muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari ham tarmoq rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa qurilish sanoatida turli hajmdagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining uyg'un rivojlanayotganini va tarmoqning iqtisodiy ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi

3. Xulosa

O'tkazilgan Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoqning rivojlanishi ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini uy-joy bilan ta'minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi bozor munosabatlarining rivojlanishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi hamda davlat tomonidan yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liqdir.

Qurilish sanoatida kichik biznes va mikrofirmalar muhim o'rin egallaydi hamda qurilish ishlarining katta qismi aynan ushbu subyektlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu holat sohada tadbirkorlik faoliyatining keng rivojlanayotganini va raqobat muhitining shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yirik qurilish korxonalarini ham infratuzilma obyektlari va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali tarmoq rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 2021–2025 yillar davomida qurilish ishlarining umumiy hajmi hamda o'sish sur'atlari barqaror ravishda oshib borgan. Ayniqsa kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining keskin ortishi qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining faol rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda norasmiy sektor ulushining saqlanib qolayotganligi sohada institutsional islohotlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi taklif qilishimiz mumkin:

- qurilish sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, ularga moliyaviy va kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- qurilish sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish;
- qurilish jarayonlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish orqali tarmoqning resurs bazasini mustahkamlash;
- qurilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- qurilish faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish va norasmiy sektor ulushini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Umuman olganda, qurilish sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu tarmoqda samarali tadbirkorlik muhitini shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.



**Foydalangan adabiyotlar /
References**

- [1] Загидуллина Г.М. Управление экономическим развитием строительных организаций различных форм собственности: Дис. д-ра. экон. наук. - М., 1996.-С. 275.
- [2] [2] Raximov A., Yuldashev B. Qurilish iqtisodiyoti. – Toshkent: TAQI nashriyoti, 2018.
- [3] [3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2023.
- [4] [4] Karimov N. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati. – Toshkent, 2017.
- [5] [5] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Qurilish sohasining statistik ko‘rsatkichlari. – stat.uz.

**Mualliflar to‘g‘risida ma‘lumot/
Information about the authors**

Abdullayev
Axror
Jaxbarovich /
Akhror
Abdullaev

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Qurilish fakulteti dekani, i.f.f.d., (PhD) dotsent
E-mail:
Abdullayev.a.77@mail.ru
Tel.: +998990041978
<https://orcid.org/0000-0001-7069-2442>



A. Abdullaev <i>Development of entrepreneurial activity in the construction industry</i>	205
M. Mamatkulov, A. Kungradbaeva <i>Road safety as a pressing issue: official statistics and analysis on deaths and injuries</i>	210
M. Mamatkulov <i>Developing a project for organizing environmental monitoring on urban roads through digitalization</i>	216
G. Ubaydullaev, R. Khakimzyanov <i>Selection of technological bases for transport vehicle parts during their manufacture</i>	221
A. Adilkhodjaev, I. Kadirov, F. Abdukadirov <i>Strategy for modifying cement systems with finely dispersed mineral fillers</i>	226